



VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik
jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2025-yil 28-iyul № 7 (1553)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda



YUKSAK SAVIYADA NISHONLANADI

Joriy yil 10-iyun kuni "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi Prezident qarori imzolandi.

Unga ko'ra, milliy istiqlolning 34 yillik sanasi Yangi O'zbekistonning taraqqiyot darajasi, jahon maydonidagi obro'-e'tiboriga har tomonlama munosib tarzda, yuksak saviyada nishonlanadi.

Mustaqillikning 34 yilligiga bag'ishlangan bayram tadbirlari "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan g'oyani o'zida mujassam etgan holda o'tkaziladi.

Bayram Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida, shuningdek, barcha shahar hamda tumanlar, qishloq va ovullarda munosib nishonlanishi ta'minlanadi.

Bayram doirasida vatanparvarlik tarbiyasi, madaniy meros va mustaqil O'zbekiston yutuqlariga bag'ishlangan "Ona zamin - ranglar jilosida", "Vatan uchun yashaylik!", "Eng ulug', eng aziz" kabi an'anaviy respublika ko'rik-tanlovlarini o'tkazish rejalashtirilgan.

3-AVGUST – O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TEMIR YO'L TRANSPORTI XODIMLARI KUNI



10-AVGUST –O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH SOHASI XODIMLARI KUNI



BUGUNGI SONDA

KORRUPSIYA

Murosasiz
bo'laylik! 4

JARAYON

Sifatga e'tibor 6

FAXRIMIZ

Zabt etilmas
cho'qqi 7

SO'RAGAN EDINGIZ

Kompensatsiya
qilinadimi? 8

E'TIROF

G'amxo'rlik
uchun rahmat 9

MA'NAVIYAT

Bo'shliq paydo
bo'lmasin! 10

SALOMATLIK

Qanday kasalliklar
xavf soladi? 11

HIKMAT

"Mehmon
tuyg'ular" 12

VATAN QADRLI VA QIMMATLI DARGOH

Har bir kishi uchun Vatan so'zi muqaddas kalimadir. Har bir insonning kindik qoni to'kilgan yeri bu uning jonajon Vatani bo'ladi. U joy juda qadrliligi va qimmatli dargoh bo'ladi.

Vatanimiz mustaqilligiga 34 yil bo'layapti. Mustaqillik tufayli boy tariximizga xolisona egalik qilish huquqini qo'lga kiritdik. O'zligimizni angladik, milliy qadriyatlarimiz tiklandi. Dinu-diyonatga e'tibor qanchalik kuchayganiga hammamiz guvohmiz. Erishilgan yutuqlardan quvonish, nurli taqdir, tuganmas baxt, cheksiz shodiyonalik baxsh etgan mustaqillikka shukronamizni izhor etish vatanparvarlik burchimizdir.

Mustaqillik, ozodlik, birovlariga qaram bo'lmaslik bu katta ne'mat.

Ne'mat bo'lganda ham, har kuni, har soat fikr yuritiladigan, har dam shukur qilinadigan qadri-sharafi, bardavomligi ko'z qorachig'iday avaylab asraladigan bebaho ne'matdir.

Taraqqiy etib borayotgan ozod va obod Vatanimizni bugun dunyo tanidi, tan oldi. Turli sohalarida Vatanimiz erishayotgan yutuqlar yurtdoshlarimizning hamjihatligi, xalqimizning bunyodkorlik borasidagi mehnatlari va albatta, bu tinchlik va o'zaro ahillik mahsulidir.

Dunyoda turli manfaatlar, g'oyalar kurashi avj olgan bugungi murakkab davrda vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning tinchligini saqlash, ravnaqi yo'lida astoydil mehnat qilish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Zero, vatanimiz bizning g'ururimiz, faxrimiz, hayotimiz mazmunidir.

Dunyoning turli mintaqalarida yuz berayotgan qarama-qarshilik va to'qnashuvlarni, vayron bo'layotgan shahar va qishloqlarni, tinch aholining qoni to'kilyotganini ko'rib, ayta olamizki, eng oliy saodatimiz – mustaqilligimizdir.

Hurriyatparvar ajdodlarimizning asriy orzusini, xalqimizning tenglar ichra teng bo'lish huquqini yuzaga chiqargan, milliy o'zligimiz, qaddimiz va qadrimizni tiklagan, mamlakatimiz tinchligi va taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini ta'minlayotgan, kelajagimizga mustahkam zamin yaratayotgan aziz va mukarram – Mustaqilligimiz bardavom bo'lsin!

Hasanboy SHOKIROV.

3-AVGUST - O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TEMIR YO'L TRANSPORTI XODIMLARI KUNI

TARAQQIYOTGA HISSA QO'SHAYOTGAN TEMIRYO'LCHILAR

O'zbekistonimiz taraqqiy etishida temir yo'l tizimining ahamiyati nihoyatda beqiyos. Temir yo'l tizimida mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilar, quruvchi va muhandislar, mashinist va vagon kuzatuvchilari samarali mehnati bilan mamlakatimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelishmoqda.

Temiryo'lchilar jamoasining samarali va mashaqqatli mehnati evaziga ortda qolgan yillar davomida tarmoqni har tomonlama takomillashtirish, davrga hamohang ravishda bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

"O'zmetkombinat" AJda Temir yo'l xizmati uzoq vaqtdan beri ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Aynan shu joyda xomashyolardan mahsulot tayyorlanadi va bu yerdan tayyor mahsulotlar iste'molchilarga yuboriladi. Har kuni, dam olish va ta'tilsiz, ushbu bo'linma xodimlari logistikaning va shu bilan birga butun korxonaning barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Temir yo'l xizmati xodimlari tomonidan bajariladigan ishlar ko'p ham ko'zga tashlanavermasligi mumkin. Ammo hisobotlarga diqqat bilan qarasangiz, temiryo'lchilarimiz tomonidan ulkan, yaxshi muvofiqlashtirilgan holda bajariladigan aniq ishlarni ko'rishingiz mumkin.

Joriy yilning yarim yilligida yuk tashishning umumiy hajmi 3,92 mln. tonnani tashkil etdi.

Jarayonning barcha ishtirokchilari o'rtasida ishni to'g'ri tashkil etmasdan bunday natijalarga erishib bo'lmaydi. Lokomotivlar deyarli jadvalga to'liq mos ravishda 26780 soat ishladilar. Temir yo'l kranlari 2433,7 soat ishlashni ta'minladi.

Texnikalarning holati ham erishilayotgan muvaffaqiyatlarda muhim rol o'ynaydi. O'tgan olti oyda 172 ta harakatdagi tarkib, 26,12 km. temir yo'l joriy ta'mirlandi, shu jumladan kranlar va moslamalarga o'z vaqtida xizmat ko'rsatildi. Bu nafaqat ishning to'xtab qolishining oldini olish, balki barcha sohalarida xavfsizlikni kafolatlash imkonini beradi.

Quyuv-prokatlash majmuasi qurilishi doirasida temir yo'l xizmati montyorlari tomonidan 4 dona strelka bilan ko'rsatilgan yo'nalish bo'yicha



surib qo'ygich qo'yilgan holda 980,5 p.m. hajmda ichki yangi temir yo'l bunyod etildi.

Temir yo'l xizmati energoresurslarni tejashda ham ajoyib natijalarga erishdi. Elektr energiyasi iste'moli 264,345 ming kVt/soat o'rniga atigi 73,745 ming kVt soatni tashkil etdi. 8,08 tn. dizel yoqilg'isi tejaldi.

Bu natijalarga erishishda texnikalardan oqilona foydalanish, smenalarda ishning oqilona tashkil etilishi va resurslardan unumli foydalanish muhim omillardan bo'ldi.

Bu raqamlar ortida o'z ishining haqiqiy ustalari turibdi. Ulardan ba'zilari o'nlab yillar davomida temir yo'l da ishlashmoqda. Kimdir yaqinda keldi, lekin tezda jamoaga qo'shilib ketdi. Jamoada hammani ishga bo'lgan mas'uliyat birlashtiradi. Ular bu yerda nomiga ishlamaydi – hamma biladiki, butun korxonaning harakati ularning mehnatiga bog'liq.

Kasb bayram oldidan temiryo'lchilar ishiga salmoqli hissa qo'shayotganlarni alohida hurmat va minnatdorchilik bilan tilga olmoqchimiz. Temir yo'l xizmatining eng yaxshi xodimlari – lokomotiv haydovchilari Eldor Rustamov, Axmat To'ychiyev, To'lqinjon Nazarov, lokomotiv mashinistlari yordamchilari G'ayrat Abdusattarov, Oybek Iskandarov, Elyorjon Boymatov, poezd tuzuvchilari Shovkatjon Qudratov, Bekmurod Qosimov,

Qosimjon Nasridinov, yo'l montyorlari Bekzod Mamayusupov, Vohid Mamayusupov, O'ktam Berdiqulov, Javohir Karimjonov, o'ziyurar temir yo'l kran haydovchilari Shovkat Xoliqulov, Farhod Abdurahimov kabilar o'z vazifalarini namunali bajarishmoqda. Shuningdek, yuk qabul qilib, topshiruvchilar Elvira Malenskaya, Lyudmila Ismedlayeva, vagon nazoratchilari Dilshod Ermatov, Akmal Karimov, Nozimjon Umarov, harakatlanuvchi tarkibni ta'mirlash bo'yicha chilangarlar Umid Nishonov, Shuhrat Tojiqulov, Murod Saxayev, yo'naltiruvchi post navbatchilari Zavqiy Umrzoqov, Shuhrat Rajabov, yuklovchi va tushiruvchilar Ahmadali Usmonov, Murod Boymatov, Aziz To'ychiyev, elektr uskunalarini ta'mirlash bo'yicha elektrik Sultonmurod Tojiboyev, elektriklar Ilhom Toshmatov, Maruf Barakayev mehnatda hamkasblariga o'rnak bo'lishmoqda. Elektr va gaz payvandchilari Ilyos Hasanov, Ulug'bek Xo'jamqulov, Javlon Alibekov, stansiya katta dispetcherlari Javlon Davronov, Sirojiddin Xudoyqulov, Abdug'affor Abdukarimov, stansiya navbatchilari Xayrullo Hasanov, Farux Mamonjonov, Faxritdin Hamroqulov, Dilshod Usmonaliyev, poezd dispetcheri Dilshod Xoliqulov, yo'l ta'mirlash ustalari Abror Boboyev, Jamshid Rahimov, harakatlanuvchi tarkib va depo boshlig'i Jamshid Saidov, harakatlanuvchi tarkib va depo ustasi G'iyos Rabbimov umumjamoaga yutuqlariga munosib hissalarini qo'shib kelayaptilar.

Temiryo'lchilar kuni faqat taqvimdagi sanagina emas. Bu samarali va mashaqqatli mehnat qilayotganlarga "rahmat" aytish imkoniyati hamdir.

Aziz temiryo'lchilar! Barchangizga yurtimizning buyuk kelajagi, xalqimizning farovonligi, baxt-saodati, sohamizning bundan-da yuksak taraqqiyoti yo'lida olib borayotgan keng qamrovli faoliyatingizda ulkan zafarlar tilaymiz. Oilalaringizdan xotirjamlik, ro'zg'oringizdan qut-baraka va farovonlik arimasin! Temir yo'l sohasi ravnaqi yo'lida ishtiyoq bilan mehnat qilishda aslo charchamang!

Bayramingiz muborak bo'lsin!

Shepiye TEFIKOVA.



10-AVGUST - O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH SOHASI XODIMLARI KUNI

QURUVCHILAR – E'ZOSLI KASB EGALARI

Quruvchilarimiz amalga oshirayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari nafaqat shaharu qishloqlarimiz qiyofasiga ko'rkamlik baxsh etayapti, balki hayotimizga o'zgacha ma'no-mazmun kiritmoqda. Sababi, joylarda barpo etilayotgan muhtasham inshootlar, san'at va madaniyat koshonalari, sport majmualari, turli ijtimoiy soha ob'ektlari, ko'prigu yo'llar, turarjoylar odamlarga katta qulaylik yaratib, munosib turmush kechirishga xizmat qilayotir.

Bunyodkorlik, saranjom-sarishtalik xalqimizga xos noyob fazilatlaridan. Bugun mamlakatimizning barcha hududlarida yurtdoshlarimiz ana shu xislatlarini namoyon etib, shahar va qishloqlarimizni yanada obod va ko'rkam etishga hissa qo'shmoqdalar.

Har bir go'shada milliy me'morchilik an'analari va zamonaviy shaharsozlik talablari asosida barpo etilgan o'nlab ko'rkam inshootlar, ko'priklar, yo'llar butun jozibasi va ko'rku tarovati bilan manaman deb bo'y ko'rsatib turgani ham hammaning havasini keltirmoqda.

Kombinatda qurilish ishlarini amalga oshirib kelayotgan Bekobod Sanoat qurilish montaj tresti MCHJ ham o'z vazifasini sidqidildan bajarib kelayapti.

So'nggi yillarda korxonamizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning murakkab sharoitlarida ham yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga katta e'tibor qaratildi. Kombinatda Quyuv-prokatlash majmuasidek ulkan qurilish ob'ekti bunyod etilmoqda. Undan boshqa qurilish ishlari ham davom etayapti.

Bunyodkorlik ishlarida Bekobod sanoat qurilish montaj tresti tomonidan ko'plab ishlar olib borilmoqda. Quruvchilarimiz jumladan Elektrda po'lat eritish bo'linmasida pech, Quyuv-mexanika bo'linmasida "chashka" tozalash uchastkasidagi qurilish ishlarida faol ishtirok etishdi.

Shuningdek, Zoldir prokatlash bo'linmasida va futbol akademiasida ham quruvchilarimiz



tomonidan keng hajmli ishlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, Quyuv-prokatlash majmuasida juda katta qurilish loyihalari amalga oshirilib kelinmoqda. Respublikada ham ulkan bo'lgan bu investitsiya loyihasini amalga oshirishda trestimiz jamoasi ham munosib hissasini qo'shib kelayapti.

Elektr uskunalarini ta'mirlash, Mexanika ta'mirlash bo'linmalarida ham quruvchilarimiz mehnat qilib kelishmoqda. Bundan tashqari Toshkent shahrida Olimpiada shaharchasidagi qurilish ishlarida jamoamiz tomonidan bir qator ishlar olib borildi.

Bunyodkorlik ishlarida trestimizning beton quyuvchilari, g'isht teruvchilari, montajchilar, AKFA eshik, derazalarini o'rnatuvchilar, san-texniklar, asfalt yotqizuvchilar va boshqa kasb egalari sidqidildan mehnat qilayaptilar.

Beton quyuvchilar Shokir Fayzullayev, Ilhom Saurov, Baxtiyor Umarov, Abduasad Suvonqulov, g'isht teruvchilar Murodjon Kenjayev, Husan Umarov, Alisher Axmedov, yosh quruvchilardan Shuhrat Eshmatov, Ilhom To'raqulov, Faxriddin Matnazarov, Rasuljon Xolmirzayev, Erkin Mirzayev, duradgor No'mon Latipov kabilar hamkasblariga o'rnak ko'rsatib ishlamoqdalar.

Uchastka boshqaruvchilari Davron Barotov, Sherali Ismoilov, Fozil Lutfullayev, Sardor Xudoyorov, Nizom Rahimjonov, Komil Abdusa-

madov, asfalt yotqizish uchastkasi ustasi Komiljon Jabborov ishni tashkil etishda jonbozlik ko'rsatishmoqda. Uchastka ustalari Nuriddin Abdurahimov, Sherzod Usmonaliyev, Komil Mo'minov, To'lqin Qurbonov, Muhridin Lutfullayevlar ham jamoamiz zimmasidagi vazifalarning o'z vaqtida sifatli bajarilishiga munosib hissalarini qo'shib kelayaptilar.

Quruvchilarning mehnati bilan butun mamlakatimiz kabi Bekobod shahri, kombinatimiz ham obod va go'zal maskanlarga aylanayotir. Ularning mehnatiga har qancha tasannolar aytib, e'zozlashimiz maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda avgust oyining ikkinchi yakshanbasida Qurilish sohasi xodimlari kuni nishonlanishi haqida qonun qabul qilingan. Bu yil quruvchilarning kasb bayrami joriy yilning 10-avgustiga to'g'ri keladi. Shu munosabat bilan barcha quruvchilarni yaqinlashib kelayotgan bayram bilan tabriklaymiz. Ularga mehnat muvaffaqiyatlari, to'kin dasturxon, tinchlik va xotirjamlik tilaymiz. Bunyodkorlarimizning sog'lig'i ularning qo'llari bilan qurilgan inshootlar kabi mustahkam bo'lsin!

Davlat XOLMURODOV,

Bekobod Sanoat qurilish montaj tresti ustasi, "O'zmetkombinat" AJ O'zLiDeP boshlang'ich partiya tashkiloti raisi.



FAOL ISHTIROK ETAYLIK!

KORRUPSIYAGA MUROSASIZ BO'LAYLIK!

Korrupsiya va poraxo'rlik ma'lum bir sohaga emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ladi. Korrupsiyaning eng xavfli tomonlari shundaki, u har qanday davlat va jamiyatning barcha sohalariga jumladan iqtisodiyotga, ijtimoiy sohaga va hattoki siyosatga ham o'zining o'ta xunuk salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu illat har qaysi davlatning ilg'or rivojlanishiga qarshi to'sqinlik qilibgina qolmay, balki uning milliy xavfsizligi manfaatlariga ham jiddiy tahdid soladi, davlatni ich-ichidan yemiradi. Aynan shu illat sababli ko'plab davlatlarning inqirozga yuz tutgani ham tarixdan ma'lum.

Bugungi kunda bu salbiy hodisa dunyoning barcha mamlakatlarida u yoki bu tarzda o'z ko'rinishiga ega. Davlatlar o'z ichki siyosati va imkoniyatlariga ko'ra bu illatga qarshi muntazam ravishda kurash olib bormoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar qanchalik harakat qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasiz bo'lmas ekan, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatmas ekan, bu baloga qarshi samarali kurashni tashkil eta olmaymiz. Bu illat bilan nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, balki har bir jamoa, har bir kishi jiddiy kurashishi kerak.

Qadrli metallurglar!

Korrupsiyaga qarshi birgalikda tizimli ravishda samarali kurash olib bormasak, bu illat mamlakatlar qatorida korxonalarni ham tanazzulga uchratadi. U hech bir sohani rivojlantirishga yo'l qo'ymaydi. Aksincha jamiyatning barcha tarmoqlari kabi ishlab chiqarishni ham inqirozga olib keladi. Bu esa isbot talab qilmas haqiqatdir.

Korxonalarda ham haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi. Chunki biron bir davlatga sarmoya kiritish istagida bo'lgan investor, eng avvalo, o'sha davlatdagi investitsion iqlimning barqarorligiga, yaratib berilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar va albatta huquqiy kafolatlariga qiziqadi. O'sha davlatda poraxo'rlik, ta'magirlik, korrupsiya holatlariga yo'l qo'yilmasagina investitsiya kiritishga bel bog'laydi.

Oramizda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masala bo'lib, bu borada biz



ham hamjihat va hamfikir bo'lishimiz maqsadga muvofiqdir. Shundan kelib chiqib, qaerdadir ta'magirlik, poraxo'rlik holatlariga duch kelsak, har birimiz bu noxush hodisaga nisbatan befarq bo'lmasligimiz, loqaydlik qilmasligimiz, aksincha, korrupsiya illatini tag-tomiri bilan quritishga qaratilgan sa'y-harakatlarni vijdonan bajarishimiz burch va mas'uliyatimizga aylanmog'i darkor. Adolatsizlikka nisbatan murosasiz bo'lishni o'zimizdan boshlashimiz zarur.

Zero, bu borada har bir fuqaroning huquqi qonuniy asosda qat'iy kafolatlangan. Ya'ni, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunda jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbuzarlik faktlariga doir murojaatlari to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot bergan shaxslar himoya qilinishi belgilab qo'yilgan.

Biz korrupsiyaga qarshi kurashda barchamiz birga harakat qilmog'imiz zarur. Bunda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va ob'yekti sifatida alohida olingan korrupsioner emas, balki ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarini bartaraf qilish va profilaktik oldini olish choralari namoyon bo'lishini anglagan holda harakat qilishimiz lozim bo'ladi.

Aziz hamkasblar!

Korrupsiyaga yo'l qo'ygan shaxs o'z vatani-ga va xalqiga xiyonat qilganlar qatorida turadi.

Undaylarga oramizda o'rin bo'lmasligi shart. Biz korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga, shuningdek, boshqa har qanday nojo'ya xatti-harakatlarga qarshi murosasiz bo'lishimiz lozim.

Bir sohada ishlayotgan hamkasblarimizning yurish-turishiga befarq bo'lmaylik. Befarqlik, nafaqat tizimga balki, kasbdoshimizning kelajagiga, uning oilasiga, farzandlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Kimki o'z nafsin tiymasdan unga qul bo'lsa, oxir-oqibat xoru zorlikda va kishilar orasida xijolatda yashashga duchor bo'ladi.

Iqtisodiyotimizni yanada jadal yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirish, mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish bevosita korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi bilan chambarchas bog'liqligini har doim yodda tutaylik. Bu maqsad yo'lida barchamiz birlashishimiz, bir yoqadan bosh chiqarishimiz, hamjihat va hamfikir bo'lishimiz, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosatini nafaqat qo'llab-quvvatlashimiz, balki unda faol ishtirok etishimizni bugungi davrning o'zi taqazo etmoqda.

Artyom SHOMESOV,
kombinatning Korporativ xavfsizlik
va resurslarni himoya qilish
departamenti direktori.

XAVFLARNI BOSHQARISH: BARQAROR RIVOJLANISH KALITI

NEGA XAVFLARNI BOSHQARISH BIZGA VA KELAJAGIMIZGA MUHIM?

Bugungi globallashtan va tez o'zgarib borayotgan dunyoda har qanday tashkilot – bu davlat idorasi bo'ladimi, biznes sub'ektimi yoki ijtimoiy muassasami – turli xil tahdidlar, xavf-xatarlar va noaniqliklar bilan to'qnash kelishi muqarrar. Iqtisodiy o'zgarishlar, tabiiy hodisalar, axborot xavflari va ijtimoiy tendensiyalar tashkilotlarning barqaror faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xavf – ma'lum bir hodisa yoki holatning tashkilot faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli, uning oqibatida moliyaviy zarar,

qonun buzilishi yoki nufuz yo'qotilishi mumkin.

Xavflarni boshqarish – bu tashkilot faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday omillarni oldindan aniqlash, ularning ehtimoli va ta'sir darajasini baholash hamda ularga nisbatan muvofiq chora-tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishni o'z ichiga olgan tizimli va davomiy jarayondir. Bu jarayon orqali xavflarning manbasi, tabiati va ular bilan bog'liq noaniqliklar chuqur tahlil qilinadi. Boshqaruv choralari xavfni to'liq bartaraf etishdan

tortib, uning ta'sirini kamaytirish, oqibatlarini yumshatish yoki xavfni qabul qilish kabi usullarni o'z ichiga olishi mumkin. Xavflarni samarali boshqarish tashkilotning strategik maqsadlariga erishishini ta'minlaydi, ish faoliyatining uzluksizligini saqlaydi va manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xavflarni boshqarish – bu tashkilot faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, u turli xatarlarga nisbatan rejali va tizimli yondashuvni ta'minlaydi. Ushbu jarayon nafaqat ehti-

moliy salbiy oqibatlarni kamaytirishga, balki ishonchli qarorlar qabul qilish, resurslardan samarali foydalanish, ichki jarayonlarni optimallashtirish va tashkilotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu boisdan, xavflarni boshqarishga doimiy e'tibor qaratish va uni tashkilotning strategiyasiga integratsiya qilish zamonaviy boshqaruvning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Abror ABDULLAYEV,
"O'zmetkombinat" AJ Kuzatuv
kengashi huzuridagi Komplaens
xizmati menejeri.

ELEKTRDA PO‘LAT ERITISH BO‘LINMASI ISHGA TUSHGANLIGIGA 17-AVGUST KUNI 47 YIL TO‘LADI

PO‘LAT DASTLAB ROSSIIYAGA JO‘NATILARDI

O‘zbekiston metallurgiya zavodi o‘tgan asrning 70-yillariga kelib loyiha quvvatida ko‘rsatilgan po‘lat va prokat ishlab chiqarishni 5-6 marotabaga oshirib yuborgandi. Shunday bo‘lsada Respublikamizda prokat mahsulotlariga talab katta edi. Shu sababdan Respublika rahbari Sharof Rashidov Moskvaga, o‘sha davrdagi ittifoq mamlakati rahbariyatiga va qora metallurgiya vazirligiga O‘zbekiston metallurgiya zavodini kengaytirishga ruxsat berishlarini iltimos qilib murojaat qilgandi. Bu masala ijobiy hal etilgach zavodda uchta katta majmua qurilishi boshlandi.

YANGI METALLURGIYA ZAVODI QURILISHI

Avvaliga yiliga 20 ming tonna sirlangan idishlar ishlab chiqarish loyiha quvvatiga ega bo‘lgan, 2000 nafar kishi ish bilan ta‘minlanishi ko‘zda tutilgan Xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarish majmuasi qurilib, 1974-yil ishga tushirildi.

1975-yildan boshlab zavodda yangi metallurgiya zavodi qurilishi boshlandi. Ya‘ni Elektrda po‘lat eritish va prokat mahsulotlari ishlab chiqarish majmualari, ularga xizmat ko‘rsatuvchi 10 yaqin sexlar quriladigan bo‘ldi.

– Metallurgiya zavodlarini loyihalashtirish bo‘yicha davlat instituti bizga loyihalarni tavsiya qildi, – deydi o‘sha davrda zavod direktorining kapital qurilish bo‘yicha o‘rinbosari Rixsivoy Yusupov. – Loyihada sanoat qurilishidan tashqari oilalar va odamlar soniga qarab ijtimoiy ob‘yektlar, uy-joy qurilishi belgilanar ekan. Odam qancha ko‘p bo‘lsa uy-joy, maktab, bolalar bog‘chasi, poliklinika va boshqalar ham shunga yarasha qurilishi kerak edi. Loyihaga qarasam bitta oilaning soni o‘rtacha ikkita qilib olingan ekan. Bu ittifoq bo‘yicha o‘rtacha sonni tashkil etardi. Men ularga “Bu bizga to‘g‘ri kelmaydi. Bizda oilalarda o‘rtacha olti kishi bor” – dedim. Ular bunga ishonishmadi. Shunda loyihani tasdiqlamadik-da Toshkentda oilalarning o‘rtacha soni haqida ma‘lumotlar to‘plab, Moskvada tasdiqlatdik. Buning uchun bir yil ketdi. Shundan so‘ng loyihalarga qo‘shimcha ijtimoiy ob‘yektlar, uy-joy qurilishi ham kiritildi.

KECHA-YU-KUNDUZ ISH QIZG‘IN BORDI


1975-yil 22-avgust kuni Elektrda po‘lat eritish majmuasining poydevoriga birinchi beton qorishmasini quyish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda Respublikamizning o‘sha paytdagi birinchi rahbari Sharof Rashidov, Respublikaning qurilishga dahldor rahbarlar qatnashib, bu marosim katta tantanaga aylanib ketdi. Tantanada kela-jak avlodlarga xat maxsus po‘latdan yasalgan stakanga joylashtirilib poydevorning orasiga qo‘yildi. Kimlardir cho‘ntagidan tangalar olib stakanga joyladi. Buni ko‘rib Sharof Rashidov ham cho‘ntagidan tanga olib, quruvchilar uchun tayyorlangan omonat yo‘lakchadan pastga tushib tangalarini stakanga tashlab chiqdi.

Qurilish ishlari kun sayin avjiga chiqa boshladi. Qurilishga yangi-yangi yordamchi pudratchi tashkilotlar jalb qilindi. Qurilish maydonida kechayu-kunduz ish qizg‘in borardi. Kunduzlari 1-1,5 mingdan ortiqroq odamlar ishlardi.

Elektrda po‘lat eritish majmuasi qurilishida metallurqlar oltita bosh pudratchi tashkilot – Qurilish vazirligidan uchta, “O‘zbekgidroenergiyaqurilish”, “O‘rtaosiyoelektrsetqurilish” hamda “O‘rtaosiyotransqurilish” bilan hamkorlik qilishadi. Ularning har birida kamida 10 tadan subpodryadchilari bor. Zavodimiz Kapital qurilish boshqarmasi xodimlari ularning hammasini ish bilan ta‘minlab turdi.

QURILISH TASHABBUSKORI VA TASHKILOTCHISI

– Sharof Rashidov 1971-1985-yillarda yangi O‘zbekiston metallurgiya zavodining qurilishining tashabbuskori va tashkilotchisi bo‘lgan



edi. O‘zbekiston metallurgiya zavodi kengaytirilishi uchun qurilishlar boshlangandan so‘ng Sharof Rashidov zavodimizga har yili kamida ikki marta – bahorda va kuzda kelar edi. Uning ishtirokidagi shtab yig‘ilishlari tinch va ishchan ruhda o‘tar edi, – deb xotirlagan edi bu paytga kelib zavod direktori bo‘lib ishlagan Rixsivoy Yusupov. – Kezi kelganda buyurtmachilarni alohida olib qolib, qurilishlarga ittifoq budjetidan iloji boricha ko‘proq mablag‘ olishga harakat qilishlarini buyurar edi. “Sizlar qo‘rqmanglar berilgan mablag‘lar to‘la-to‘kis o‘zlashtiriladi. Kerak bo‘lsa boshqa qurilish tashkilotlarini ham sizlarga yordamga jalb qilamiz”, deb bizga dalda berardi. Keyingi kelganda buyurilgan vazifalarning qanday bajarilganini tekshirib chiqardi.

ELEKTRDA PO‘LAT ERITISH BOSHLANDI

1978-yil 13-fevralda Elektrda po‘lat eritish sexining birinchi pechida namuna uchun dastlabki po‘lat eritilib ko‘rildi. Shu yilning 17-avgust kunidan esa sexda muntazam elektrda po‘lat eritish boshlandi. Yil oxiriga borib EPESning ikkinchi pechi va uzluksiz metall quyish qurilmasi ishga tushdi.

– Har qaysi pechning loyiha quvvati 250 ming tonna po‘lat eritishga mo‘ljallangan bo‘lib, uzluksiz quyish mashinalarining quvvati esa undan ham ortiqroq edi. Ammo eritilgan metallni tayyor mahsulotga aylantirishning iloji yo‘q edi. Chunki zavodning eski prokat sexi o‘sha paytlarda 300-320 ming tonna prokat mahsuloti tayyorlash qurbiga ega edi, xolos. Shu sabab EPESda tayyorlangan xomashyo Rossiyaning ulkan zavodlariga jo‘natilardi. Kompleks qurilish loyihasi bo‘yicha oldinda uchinchi pech, quyish mashinasi bilan, 1 mln. tonnadan oshiqroq metallni tayyor mahsulotga aylantiradigan qudratli yangi prokat sexi qurilishi turar edi. Albatta, bu ikki gigant sexlarni maromida ishlatish uchun bir necha yordamchi xo‘jaliklar qurilishi olib boriladi. Ta‘mirlash-mexanika, elektr tarmoqlari, pod-



stansiyalar, energetika, temir-tersakni tayyorlash sexlari ishga tushiriladi, – deya xotirlagan edi kombinatimizda uzoq yillar turli rahbarlik lavozimlarida ishlagan Yunusboy Yusupov.

Rixsivoy Yusupov zavodga rahbarlik qilgan davrlar, davlat miqyosidagi katta loyiha, zavodni kengaytirish va qayta qurish davrining eng cho‘qqisi va nihoyatda og‘ir pallalariga to‘g‘ri keldi. EPESning 3-pechi, uzluksiz po‘lat quyish mashinasi bilan ishga tushirilib, uchchala pechdan 600 ming tonnadan oshiq metall quyilmasi olishga erishildi. EPESda birin-ketin yordamchi sex, bo‘linmalar ishga tusha boshladi. Prokat ishlab chiqarish majmuasi qurilishi jadal sur‘atlar bilan olib borildi.

MISLI KO‘RILMAGAN NATIJA

1984-yil 30-iyun kuni yangi prokat sexi ishga tushdi. Shu kuni birinchi mahsulot olindi. Yuqorida aytib o‘tilgan EPESda tayyorlanayotgan xomashyo endi o‘zimizda tayyor mahsulotga aylantiriladigan bo‘ldi.

Yangi metallurgiya zavodi qurilishi misli ko‘rilmagan natija edi. Bu ishning ko‘lami naqadar katta bo‘lganligini quyidagi misol ham yaqqol ko‘rsatib turibdi. Bu ulkan qurilish boshlanmasdan O‘zbekiston metallurgiya zavodining umumiy maydoni 35 gektarga teng edi, endi esa – 500 gektarga yetdi. Ishchi-xizmatchilar soni ilgari 2500 bo‘lgan bo‘lsa, qurilishdan so‘ng 10 ming nafardan oshdi.

1971-1985-yillar mobaynida yangi ob‘ekt va agregatlar uchun ittifoq budjetidan bir yarim milliarddan ortiq mablag‘ olingan.

1978-yilda zavodimizda 336,8 ming tonna po‘lat eritilib, 366,7 ming tonna prokat mahsulotlari, 17,7 mln. so‘mlik sirlangan idishlar ishlab chiqarilgan edi. 1985-yilda esa 839,3 ming tonna po‘lat eritildi, 755,2 ming tonna prokat mahsulotlari, 47,7 mln. so‘mlik sirlangan idishlar tayyorlandi.

Diyor ZULFIQOROV.

MUVAFFAQIYATNING ASOSIY OMILI



Bekobod Kislorod ishlab chiqarish korxonasi MCHJdagi kompressorlar yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning ishonchliligi va samaradorligi kutilgan natijalarni berib kelmoqda. Bu, o'z navbatida, kombinatning ishlab chiqarishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Har bir korxonada – ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohasidan qat'iy nazar tajribali ishchilar muvaffaqiyatning asosiy omili hisoblanadi. Tajribali mutaxassislar nafaqat o'z sohasidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi, balki ish jarayonida to'plagan tajriba orqali murakkab muammolarni tez va samarali hal qila olishadi. Bekobod Kislorod ishlab chiqarish korxonasida ham bilimli va malakali ishchi-xodimlar yetarlicha topiladi. Ularning samarali mehnatlari evaziga ham belgilangan ishlar o'z vaqtida bajarilmoqda.

Texnologlardan Shuhrat Usmonov, Akmal Yo'ldoshev, chilangarlardan Erkin Abduxoliqov, Shukrullo Xoliqnazarov kabilar bilim va tajribalari bilan ishlab chiqarish jarayonini barqarorlashtirishda, muammolarni tezkor hal etishda boshqalarga ibrat ko'rsatib kelishmoqda.

O'Z VAQTIDA TAYYORLANMOQDA

Ta'mirlovchi-mexaniklarning samarali faoliyati har qanday ishlab chiqarish korxonasining umumiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ham korxonalarda bu sohada yuqori malakali mutaxassislar ishlashi davr talabidir.

Ta'mirlash-mexanika bo'linmasida mehnat qilayotgan soha xodimlari ham tajribalariga tayangan holda oldilariga qo'yilgan vazifalarni sidqidildan bajarib kelishmoqda. Jamoa kombinatimizning ko'plab bo'linmalariga buyurtma asosida turli xildagi ehtiyot qismlarni tayyorlab bermoqda. Eskirgan mexanizmlar va uskunalarini zamonaviy texnologiyalar asosida yangilash hamda ularni ishlab chiqarish talablariga mos holga keltirish ham bo'linma vazifalariga kiradi.

Bu ishlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishida bo'linmaning malakali tokarlaridan Quadrat Dadamuhamedov, Rustam Abduhamidov singari o'z kasbining ustalari boshqalarga ibrat bo'lib mehnat qilishmoqda.



SIFATGA E'TIBOR

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida har bir sohaning rivoji, uning samaradorligi, avvalo, jamoalarning birdamligi va sidqidildan qilayotgan mehnatiga bog'liq. Ana shunday mehnatkash, mas'uliyatli va fidoiy jamoalardan biri bu – kombinatimizning Navli prokatlash bo'linmasidir.

Mazkur jamoa o'z faoliyatini yuqori samara va natijaga qaratgan holda, har bir ishga vijdonan yondashmoqda. Ishda hamjihatlik, tartib-intizom, o'zaro hurmat va ahillik tufayli turli xildagi prokat mahsulotlarini sifatli ishlab chiqarmoqdalar.

Yuklash bo'linmasi smena ustasi Ilhom Tursunboyev, brigada boshlig'i Shahboz Saburov boshchiligidagi jamoa boshqalarga ibrat bo'lgan holda topshiriqlarni bajarib kelmoqda.

Bekobod Rangli metallar ishlab chiqarish korxonasi MCHJ jamoasi mahsulotlarni tayyorlab berishda samaradorlikka erishish uchun harakat qilmoqda.

SAMARADORLIKKA ERISHILMOQDA

Shuni alohida ta'kidlab o'tish o'rinliki, bu korxonada tayyorlanayotgan mahsulotlar respublikamizda elektrotexnika sanoatining mis mahsulotlariga bo'lgan talabini qondiradi. Bundan tashqari mahsulotlarni eksport qilish ham munosib uddalanmoqda.

Joriy yilning o'tgan oylarini sarhisob qiladigan bo'lsak, ular mis va mis qotishmalaridan tayyorlanadigan folga, lenta va tasmalar ishlab chiqarishdi. Bu mahsulotlar ichki hamkorlardan "Avtotraktorradiatori", Electric sales, "Standart yelektro texnika", Amistrong grant mix, Turon sanoat mezon kabi korxona va firmalariga yuklab berildi.

MALAKALARI OSHIRILDI

"Bekobod maxsus o'quv markazi" MCHJda yaqinda "Metallurgiya Servis Markazi"ning Elektrotexnika laboratoriyasi xodimlari uchun "O'z DST 3410:2019 Sinov laboratoriyaning texnik jihatdan malakaligi qo'yiladigan umumiy talablar" mavzusida masofaviy malaka oshirish kursida mashg'ulotlar olib borildi.

O'quv kursi masofaviy shaklda, shaxsiy havolalar yordamida, xodimlarning ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'tkazildi.

O'quv kursi "O'zmetkombinat" AJ va O'zbekiston Respublikasi Texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston Standartlar instituti DM o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan tashkil etildi.

Malaka oshirish mutaxassislarning kasbiy malakalarini mustahkamlash va ularning faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi zamonaviy talablarga muvofiqlashtirish yo'lidagi muhim qadamdir.

METALLURGLAR DIQQATIGA

RUXSAT ETILMAGAN JOYLARDA CHO'MILMANG!

Bilamizki, jazirama saratonda tanaga huzur bag'ishlovchi havzalar o'z bag'riga barchani chorlaydi. Ammo, belgilanmagan joylar (daryo, kanal, ariq, zovur va hokazolar)da cho'milish esa qanchalar xatarli ekanligini yoddan chiqarmang!

Shunga o'xshash holatlarning oldini olish maqsadida Bekobod shahar FVB xodimlari bilan hamkorlikda kombinatimiz YOXTTEB tomonidan cho'kish bilan bog'liq xavf yuqori bo'lgan joylarda (cho'miluvchilar bilan) muntazam suhbatlar o'tkazilib, ta'qiqlovchi belgilar o'rnatib kelinmoqda.

Shu o'rinda Sizlardan jondan aziz farzandlaringizni nazoratsiz qoldirmasligingiz hamda ruxsat etilmagan joylarda cho'milmasliklarini takidlab, kerak bo'lsa talab qilishingizni, bunday joylarda o'zingiz ham cho'milmasligingizni so'raymiz.


Unutmangki, bir lahzalik befarqlik yohud nazoratsiz soniyalar musibatlar keltirishi mumkin.

Adham HAMDAMOV,
"O'zmetkombinat" AJning
YOXTTEB boshlig'ining
o'rinbosari, podpolkovnik.



BUYUK AJDODLARIMIZ

ZABT ETILMAS CHO'QQI



Abu Rayhon Beruniy to'g'risida eng tugal ta'rifni yirik nemis sharqshunosi Karl Eduard Zaxau bergan: "Dunyoda tog'lar ko'p, lekin ular orasida shunchalik yuksak bir cho'qqi borki, bu cho'qqini insoniyat hech qachon zabt etolmaydi. Bu – Beruniydir".

Bu ulug' zot qanchalar ulkan olim bo'lganligini, buyuk tafakkurga ega ekanligini tasavvurga sig'dirib bo'lmaydi. Abu Rayhon Beruniy o'rta asrlar buyuk qomusiy olimlarining peshqadami edi. Uning bu qadar buyukligi o'sha davrning deyarli barcha fanlariga qo'shgan betakror ilmiy merosida yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

U geografiya, matematika, astronomiya, mineralogiya, geodeziya, falsafa kabi bir qator

fanlarga oid ko'plab fundamental asar, traktat va qo'llanmalar yaratgan.

O'z davrida birinchi bo'lib Yerning shar shaklidaligini va u quyosh atrofida aylanishi g'oyasini ilgari surgan, keyinroq Yer radiusini (taxminan 6000 km) o'lchagan.

Dunyoga mashhur olim Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy 973-yil Kat shahrida (Xorazmning o'sha davrdagi poytaxti, hozirgi O'zbekistondagi Xivaga yaqin yerda joylashgan) dunyoga keldi.

Beruniyning 152 asari ma'lum bo'lib, bizgacha uning faqat 30 tasi yetib kelgan. Jami asarlarining 70 tasi astronomiyaga, 20 tasi matematikaga, 12 tasi geografiya va geodeziyaga, 4 tasi mineralogiya, 1 tasi fizikaga, 1 tasi

dorishunoslikka, 15 tasi tarix va etnografiyaga, 4 tasi falsafaga, 18 tasi adabiyotga bag'ishlangan. U 50 yoshida qadimiy sanskrit tilini o'rgandi, bundan tashqari, fors, arab, yahudiy, grek tillarini ham bilar edi.

Beruniyning olimlik salohiyatiga mashhur sharqshunos tadqiqotchilar "...uning qiziqqan ilm sohalaridan ko'ra, qiziqmagan sohalarini sanab o'tish osondir", deb baho bergan edi. Uning mineralogiya sohasidagi asari bundan ming yil avval yozilgan bo'lsada, shunchalar mukammal bitilganki, minerallar va ularning hozirgi eng zamonaviy laboratoriyalardagi aniqlanishi mumkin bo'lgan xossalari shu darajada aniq berilgan. Bundan aql lol qoladi. Holbuki, mineralogiya Abu Rayhon Beruniy shug'ullangan o'nlab fan sohalarining biri edi, xolos.

Beruniy dunyo ilm-fanida birinchilardan bo'lib dengizlar nazariyasi va Yerning sharsimon globusini yaratish yuzasidan o'ziga xos yangi g'oyalarni taklif etdi. Al-Beruniy 995-yildayoq, ya'ni 22 yoshga to'lganda, birinchilardan bo'lib Yer va Osmon globusni yaratdi va yerning sharsimonligini isbotlab, yerning aylanishini ko'rsatib bergan.

Beruniy yer sharining radiusini aniqlashning 1023 xil yo'lini kashf qildi. Yer radiusini hisoblab chiqish bilan birga, vakuum, ya'ni bo'shliq holatini izohlab berdi, Kolumb sayohatidan 500 yil oldin Tinch va Atlantika okeanlari ortida qit'a mavjudligi (Amerika qit'asi) haqidagi qarashni ilgari surdi, minerallar tasnifi va ularning paydo bo'lish nazariyasini ishlab chiqdi, geodeziya faniga asos soldi. Shuning uchun ham XI asr butun dunyodagi tabiiy fanlar tarixchilari tomonidan "Beruniy asri" deb atalishi bejiz emas.

Abdusalom ABDULLAYEV,
jamoatchi muxbir.

XIZMAT KO'RSATGAN SANOAT XODIMI

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" Akramjon Muratov bekobodlik metallurglar jamoasida ish boshlagan kezarini yaxshi eslaydi. 1976-yil sentabr oyida O'zbekiston metallurgiya zavodining kadrlar bo'limiga hujjatlarini topshirib, ishga qabul qilishlarini so'rab ariza yozadi. Unga o'sha paytlar zavodda bosh energetik yordamchisi bo'lib ishlayotgan Erkin Rahmatov qabuliga yo'llanma beriladi.

Bosh energetik yordamchisi oliy ma'lumotli yosh mutaxassisni zavod direktori Ibrohim Muhammedov qabuliga olib kirib, energetika bo'limiga ishga olishni taklif qiladi. Zavod direktori Akramjon Muratovning hujjatlari bilan tanishib chiqadi. 1951-yilda Namangan viloyatida tug'ilgan, 1973-yil Toshkent Politehnika institutining mexanika fakultetini tugatgan Akramjon 1973-1975-yillari harbiy xizmatni o'tab kelgan. 1975-yil "BekobodSavdo" korxonasida ishlaganidan so'ng metallurgiya zavodida ishlash uchun hujjatlarini topshirgan edi.

Zavod direktori Akramjonga ishni sexda oddiy ishchilikdan boshlashni maslahat beradi. Direktor qabulidan so'ng uni Energetika sexiga "apparatchi" qilib ishga qabul qilishadi.

1977-yil fevral oyida yangi qurilayotgan



Elektrda po'lat eritish majmuasining "Kislород kompresor stansiya"siga ishga o'tkaziladi. Shu kundan boshlab uning ish faoliyati "Kislород ishlab chiqarish" bilan bog'liq bo'ldi. Ko'p yillar sexda uchastka boshlig'i vazifasida ishladi.

Akramjon aka Kislород-kompresor sexida 40 yil mobaynida mehnat qildi. Bu sohada o'zining birinchi ustoz deb keyinchalik kombi-

nat bosh energetigi bo'lib ishlagan, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan injener" Erkin Rahmatov deb biladi. Ustoz yangi qurilayotgan Kislород-kompresor sexi qurilishida yangi uskunalarni o'zlashtirib ishga tushirishlarida ularga bosh-qosh bo'lib, yo'l-yo'riq ko'rsatib, to'g'ri yo'lni o'rgatib turgan.

– "Ustoz – otangdek ulug'", – deganlaridek ustozimiz Erkin Rahmatov kombinatga va biz kabi shogirdlarining kamolot cho'qqilarini egallashimizda xizmatlari beqiyos, – deydi mehnat faxriysi Akramjon Muratov. – Bu kombinatda kechgan umrim, mehnatlarim zoe ketmadi, xizmatlarim davlatimiz tomonidan yuqori baholandi. 2004-yilda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" unvoniga loyiq ko'rildim. Men kombinatimga, xalqimga ozmi-ko'pmi foydam tekkanidan, umrim besamar o'tmaganidan ko'nglim tog'dek ko'tariladi, faxr-iftixor hissini tuyaman. Shunday ajoyib korxonam, mehribon ustozlarim va qadrli jamoam bilan faxrlanaman.

Akramjon Muratov 2016-yili kombinatda mehnat faoliyatini yakunlab, pensiyaga chiqdi. Shunday bo'lsada hali-hanuz qadrdon kombinati, jamoasi bilan tez-tez uchrashib, diydorlashib ish tajribalari bilan o'rtoqlashib turadi.

Xayriniso RASULOVA.



TO'LIQ KOMPENSATSIYA QILINADIMI?

Ishxonamdan 6 yil davomida mehnat ta'tili olmaganman. Mehnat shartnomasini bekor qilsam foydalanilmagan ta'til pullarini to'liq olamanmi yoki oxirgi ikki yil foydalanilmagan ta'til uchun kompensatsiya beriladimi?

S. Aduqodirov.

Mehnat kodeksining 234-moddasining birinchi qismiga asosan mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga barcha foydalanilmagan har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillari uchun pulli kompensatsiya to'lanadi. Ya'ni foydalanilmagan ta'til qancha bo'lishidan qat'iy nazar u 6 yil bo'ladimi 10 yil bo'ladimi pullik kompensatsiya to'lab berilishi lozim.

Bu yerda e'tibor qilish kerak bo'lgan bir nechta holatlar mavjud. Birinchidan, bir narsani e'tiborga olish lozim bu yerda xodim bilan mehnat shartnomasi qaysi asosga ko'ra bekor qilinayotganining ahamiyati yo'q. U xoh ish beruvchining tashabbusi bilan bo'lsin, xoh xodimning tashabbusi bilan va yoki tomonlarga bog'liq bo'lmagan holatda bo'lsin pullik kompensatsiya to'lanadi.

Ikkinchidan, olti yillik mehnat ta'tilining kompensatsiya pulini hisoblashda 6 yil avvalgi oylikdan emas balki bugungi kundagi oylik maoshdan kelib chiqib hisoblanadi.

Uchinchidan, olti yillik foydalanilmagan ta'tilni ishchi ishlayotgan davrda kompensatsiya qilib bo'lmaydi. Bu holatda faqat ta'tilni qismlarga bo'lgan holda berish orqali ish jarayonida ta'til masalasidagi kompensatsiyadan qutulish mumkin.

INTIZOMIY JAZO QO'LLASHDA QANDAYDIR TARTIB BORMI?

Intizomiy jazo qo'llashda ish beruvchi avval hayfsan emas birdaniga 30 foiz jarimani qo'llashi mumkinmi?

B. Inomov.

Xodimga birdaniga o'rtacha oylik ish haqining 30 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima qo'llanilishi mumkin. Ko'pchilikda intizomiy jazolar ketma-ket qo'llanilishi shart, degan noto'g'ri qarash bor. Ya'ni, birinchi marta nojo'ya xatti-harakat sodir qilgan shaxsga hayfsan, so'ng jarima va nihoyat mehnat shartnomasini bekor qilish kabi.

Aslida, intizomiy jazolarni ketma-ket qo'llash shart emas. Nojo'ya xatti-harakatning og'irligi, uni sodir qilish holatlari, xodimning xulq-atvorini hisobga olib, ish

beruvchi istalgan turdagi intizomiy jazodan birini qo'llashi mumkin.

Mehnat kodeksi 313-moddasi 3-qismiga ko'ra, intizomiy jazo chorasini tanlash huquqi ish beruvchiga tegishlidir. Intizomiy jazo chorasini qo'llashda sodir etilgan qilmishning og'ir-yengilligi, uning sodir etilishi holatlari, xodimning avvalgi ishi va xulq-atvori hisobga olinadi.



KAFILLIKDAN VOZ KECHSA BO'LADIMI?

Bir tanishimga kredit olayotganida kafil bo'lganman. Bu tanishim ishdan bo'shab kreditni to'lay olmayapti. Buning usitiga u bilan janjallashib ham qoldim. Men qanday qilib uning olgan kreditiga kafillikdan qutilsam bo'ladi?

L. Azizova.

Kafillik qarzdor majburiyatlari bo'yicha kafilda ham majburiyat vujudga keltiradi. Ya'ni siz kafillikka olgan tanishingiz kreditni to'lay olmasa uning o'rniga siz to'laysiz. Hatto qarzdorlikdan paydo bo'lgan penyal ham sizdan olinadi.

Kreditga kafillik shartnomasini tuzgach, keyinroq undan voz kechish qiyin masala. Qonunchilikka ko'ra shartnomani bir tomonlama bekor qilish, ya'ni kafillikdan bir tomonlama voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

Masalan, kafil shartnoma tuzganidan keyin ishdan ayrilsa, kasal bo'lib qolsa, qarzdor (kredit olgan tanishi) bilan janjallashib qolsa ham kafillik o'z kuchida qola-

veradi. Kafillik shartnomasini o'zgartirish yoki bekor qilish uchun bank bilan kelishish kerak bo'ladi. Bank esa hech qachon o'z ta'minoti zarariga harakat qilmaydi. Kafillik qachonki kredit qarzi to'liq to'langanda, qarz majburiyati boshqa shaxsga o'tkazilganda yoki kafillik muddati o'tib bo'lgandan keyin tugaydi.

Yana bir yo'li kafilni almashtirishni so'rab bankka murojaat qilish, agar tomonlar kelishsa kafilni boshqa shunday shaxsga almashtirish mumkin. Biroq, boshqa kafil bo'layotgan odam kreditni o'zi to'lashi kerakligini bilsa uni kafillikka ko'ndirish ham oson bo'lmaydi.

Shuning uchun ham kafil bo'lishdan oldin masalaning bu tomonini oldindan yaxshilab o'ylab ko'rish kerak edi.



PENSIYAGA CHIQQANLARNI ISHDAN BO'SHATISH MUMKINMI?

Pensioner xodimlar bilan mehnat shartnomasini bir tomonlama bekor qilsa bo'ladimi?

V. Azamatov.

Amaldagi Mehnat Kodeksining "Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish" deb nomlangan 161-moddasida xodimning pensiya yoshiga yetgani munosabati bilan ish beruvchining tashabbusiga ko'ra mehnat shartnomasini bekor qilish bilan bog'liq qoidalar mavjud emas. (Eski tahrirdagi Mehnat Kodeksida bo'lgan). Shu sababli bugungi kunda pensiya yoshiga yetgan xodim bilan ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bir tomonlama bekor qilishning imkoni mavjud emas.

Biroq, agar pensiya yoshidagi

xodim o'z ishiga noloyiq bo'lsa, mehnat intizomini doimiy tarzda buzib kelsa, u bilan mehnat shartnomasini boshqa qoidalar bilan bekor qilish mumkin. Mehnat Kodeksining 161-moddasi 2-qism 3-xatboshisiga ko'ra xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi sababli egallab turgan lavozimiga yoki bajarayotgan ishiga muvofiq emasligi munosabati bilan mehnat shartnomasini bekor qilish mumkin.

Respublika Oliy sudi plenumining 2023-yil 20-noyabrdagi 26-sonli qarorida mazkur band bilan mehnat shartnomasini bekor qilishda quyidagicha tushuntirish beriladi. Agar xodim u bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga ko'ra, aynan bajariishi shart bo'lgan ishni uddalay olmayotgan bo'lsagina, noloyiq bo'yicha u bilan mehnat

shartnomasini bekor qilinishiga yo'l qo'yiladi. Agar ish beruvchi pensiya yoshiga yetgan xodimni mazkur band bilan ishdan bo'shatayotgan bo'lsa, ish beruvchi Plenum qarorining quyidagi 29-bandiga e'tibor berishi kerak.

"Xodimning noloyiq bo'yicha bajarishi shart bo'lgan topshirilgan ishni uddalay olmayotganligini isbotlovchi aniq faktlar (tek-

shiruv dalolatnomalari, bevosita rahbarlik qiluvchisining bildirish xatlari, hisobotlar, attestatsiya hujjatlari va ishning past sifatligini, yaroqsiz mahsulot chiqarayotganini, ish hajmini hamda ishlab chiqarish normasini bajara olmayotganligini va hokazolarni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar) bilan tasdiqlanishi lozim".



FAXRIYLARGA G'AMXO'RLIK UCHUN RAHMAT

Yaqinda "Turon" sanatoriysida sog'lig'imni mustahkamlab, dam oldim. Hamma qatori bu sihatgohda meni ham xushmuomalalik bilan juda yaxshi kutib olib, yaxshi xonaga joylashtirishdi. Sanatoriya oddiy xodimdan boshlab bosh shifokorgacha hammaning muomalasi yaxshi ekan. Ularning gaplari, muomalasi ham odamlarni davolaydi. Sihatgohning o'zi Toshkentning so'lim go'shasida joylashgan ekan.

Menga qarash uchun kelgan nevaramga ham yonimdan joy qilib berishdi. Ovqatiga pul to'ladim, xolos.

– Ko'p sanatoriylarda bo'lganman. Ular orasida "Turon"dagiday yaxshi sanatoriyni ko'rmadim. Shuning uchun keyingi to'rt yildan buyon shu joyda sog'lig'imni mustahkamlash uchun

MINNATDORLIK



kelayapman, – deydi hamxonam surxondaryolik fermer Muhammadjon.

Sanatoriya muolajalardan tashqari "Tosh-

kent Siti", "Medjik Siti"ga sayohatga olib borishdi. Hatto Bo'stonliq tumani tog' bag'irlariga ham sayohatlar uyushtirildi.

O'n kun davomida bu sihatgohda dam olib, ham ruhiy, ham jismoniy tomondan yaxshi muolaja oldim.

"O'zmetkombinat" AJ mehnat faxriylariga shunday imkoniyatlar yaratib berayotgan kombinatga, Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi raisi A. Farmonovga, Kengashning Bekobod filialiga katta rahmat. Ular bizga mana shunday zo'r sanatoriylarga yo'llanmalar berishib, faxriylarga g'amxo'rlik qilishmoqda.

Erkin IBRAGIMOV,
mehnat faxriysi.



"KASABA KUBOGI - 2025"

ZOLDIR PROKATLOVCHILAR G'OLIB



"O'zmetkombinat" AJ ishchi-xodimlari o'rtasida ommaviy sport bilan shug'ullanishni va sog'lom turmush tarzini targ'ib etish maqsadida turli musobaqalar tashkil etilmoqda.

Ana shunday musobaqalardan biri mini-futbol bo'yicha "Kasaba kubogi" bahslari 10-may kuni boshlangan edi. Shu kundan buyon dam olish kunlari o'tkazilgan kombinat tarkibiy bo'linma-

lari jamoalari o'rtasidagi o'zaro o'yinlardan so'ng finalchilar aniqlandi. Musobaqaning bosh sovrini uchun finalda Idoraviy harbiylashtirilgan qorovullik va Zoldir prokatlash bo'linmasi o'zaro kuch sinashdi.

Bu jamoalar o'rtasida bo'lib o'tgan murosasiz va qiziqarli o'yinda Zoldir prokatlovchilar jamoasi raqibini 5:1 hisobida yengdi. Shunday qilib Zoldir prokatlash bo'linmasi "Kasaba kubogi - 2025" musobaqasida g'olib chiqdi.

3-o'rin uchun o'yinda Navli prokatlash bo'linmasi Bekobod Emal MCHJ jamoasini 3:1 hisobida yengdi.

Musobaqa yakunida g'olib va sovrindor jamoalarga kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan diplom, medallar, pul mukofotlari va chempionga Kubok topshirildi.

YOZ O'TMOQDA SOZ



Shu kunlarda bolalarning sog'lomlashtirish oromgohlarida bolajonlar miriqib dam olmoqdalar. Ularning maroqli va mazmunli dam olishi uchun yaxshi sharoit va imkoniyatlar yaratib berilgan.

Bekobod shahrining eng so'lim va barhavo go'shasi Sirdaryo bo'yida joylashgan "Sohil" oromgohida ham bolalar yoz mavsumini maroqli o'tkazishmoqda. Bu joyda bolalarning hordiq chiqarishlari uchun ko'ngildagidek shart-sharoitlar yaratilgan.

Bolalar xavfsizligini ta'minlash maqsadida har bir otryadda mas'ul tarbiyachilar, yetakchilar faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, oromgoh doimiy ravishda shifokor va tibbiyot xodimlari bilan ta'minlangan. Taomlar sanitariya me'yorlariga to'liq javob beradigan holda, bolalarning yoshi va salomatligiga mos holda tayyorlanmoqda.

Bolajonlarimiz turli xil tadbirlarga katta qiziqish bilan qatnashmoqdalar. Jumladan suv basseynlari, sport maydonlari, to'garaklar, kutubxona, madaniy dam olish uchun mo'ljallangan joylar mavjud.

Bu esa bolalarni sog'lom fikrlaydigan, yetuk, barkamol, yurt uchun nafi tegadigan yoshlar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Tabiat qo'ynida hordiq chiqarish, sport o'yinlari va musobaqalarda ishtirok etish, yangi do'stlar bilan muloqot imkoniyati, turli tanlovlarda ishtirok etish – bolaga mana shu narsalar kerak. Aynan shu hordiqni unutilmas qiladi, bolalarning iqtidorini yuzaga chiqaradi, kelgusi mavsumgacha bir yilga yetarli turli taassurotlar bilan boyitadi.

BOLALAR VAQTI MAZMUNLI O'TDI

Bu yil o'quvchilarning yozgi ta'tillarida "Metallurg" futbol akademiyasida birinchi marta metallurqlar farzandlari uchun "SCHOOL SUMMER CAMP" maktab oromgohi faoliyat ko'rsatdi.

Oromgohda o'g'il, qizlar uchun sog'lom va mazali ovqatlanishga, maxsus ishlab chiqilgan dastur asosida maroqli va faol hordiq chiqarishlariga alohida e'tibor qaratildi. O'quvchilar turli sport o'yinlarida ishtirok etdilar. Jumladan futbol, stol o'yinlari, shaxmat musobaqalarida o'zaro kuch sinashdilar. Malakali murabbiylar nazoratida basseynida mazza qilib suzdi-

lar. Estafetalarda ildam va chaqqonliklarini namoyish etdilar. Xoreografiya va raqs to'garaklarida shug'ullandilar.

Shuningdek, bolalar mantiqiy o'yinlar, rasm chizish, mohir qo'llar mashg'ulotlarida ishtirok etdilar. Dam oluvchilar o'rtasida viktorinalar tashkil etildi. Ularning ingliz tili va kompyuter savodxonligi to'garaklarida olgan bilimlari ham juda foydali bo'ldi.

Bu oromgohda bolalar yoz kunlarini quvnoq, mazmunli va foydali tarzda o'tkazdilar.

Furqat XOLIQULOV.



YOSHLARNI BUZG'UNCHI G'OYALARDAN ASRAYLIK!

Ma'naviyat millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Zero, insonning jamiyatdagi o'rnini uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma'naviy qiyofasi bilan belgilanadi.

XATARLAR TOBORA ORTMOQDA

Ammo bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globalashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Achinarli jihati, milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda.

Bunday tahlikali vaziyatda yoshlarni ma'naviyatli qilib tarbiyalash, ularni kitob mutolaasiga jalb qilish, yoshlar o'rtasida mutolaa madaniyatini manzilli qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish eng asosiy masala hisoblanadi. Chunki, barkamol avlodni voyaga yetkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. Aynan mutolaa insonga bilim va axborot beradi, uning ma'naviy olamini boyitadi.

HUJUMLAR ASOSAN YOSHLARGA QARATILADI

Buzg'unchilar o'zlarining uzoqni ko'zlagan kirdikorlarini amalga oshirish uchun internet orqali hujumlarni asosan yoshlarga qaratishadi. Internet saytlarida yoshlar dunyoqarashiga ijobiy ta'sir qiluvchi axborotlar oqimidan tashqari g'alamis g'oyalar asosida shakllantirilgan, insonni manqurtlikka yetaklaydigan material-



lar ham uchrab turadi.

Ular yoshlar uchun qiziqarli bo'lgan vositalardan ustalik bilan foydalanishmoqda. Jumladan, yoshlarning qiziqishiga qarab, ularni turli videolavhalar va fotosuratlarini tomosha qilishga jalb etish orqali yoki tashqi ko'rinishidan go'yo o'yin, texnika, sportga doir bo'lsa-da, lekin ichki sahifalarida faqat buzg'unchilikni singdiruvchi veb-hujjatlarni taqdim etmoqda.

Oq-qorani tanib ulgurmagan, yaxshi-yomonning farqiga bormagan ayrim yoshlar internet orqali uzatilgan ayrim ma'lumot-xabarlarini mutloq haqiqat deb qabul qilish holatlari uchrayotgani va natijada yoshlarimiz bilib-bilmay ularga qo'shilib qolayotgani kishini jiddiy xavotirga soladi.

MA'NAVIY BO'SHLIQ PAYDO BO'LMASIN!

Insonning ongi-shuuri turli-tuman axborot xurujlari nishoniga aylanib borayotgan bir paytda, bu xurujdan himoyalashning birdan-bir yo'li – sog'lom fikr yuritish, atrofga hushyor nazar tashlash, hamisha ogoh bo'lishdir. Ayniqsa, yoshlar ongida ma'naviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, loqaydlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etish bugunning muhim masalalaridandir.



Yoshlarda internetdan olinayotgan axborotlarga tanqidiy yondashish va uning ishonchli manbalar asosida o'z dunyoqarashini kengaytirish, zararli ma'lumotlarni inkor eta bilish idrokini hosil qilish g'oyat muhim. Har bir yosh ma'lum bir ko'nikma va bilimlarga, diniy va dunyoviy ilmlarning mohiyatini tushuna olish qobiliyatiga ega bo'lishi, dunyoda kechayotgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga befarq bo'lmasligi lozim.

Yoshlar ma'naviyatli, ma'rifatli, vatan va millatparvar bo'lib tarbiyalanmas ekan, g'alamislar ulardan har qanday qabih ishlarini amalga oshirishda foydalanishlari mumkin. Ularning ongini buzib yoki pulga qiziqtirib vataniga, xalqiga qarshi ham foydalanish mumkinligini dunyoda bo'layotgan voqealar ko'rsatib turibdi. Pul uchun o'z vatanini sotayotganlar, korrupsionerlar, korxonalarini kasodga uchratayotganlar oramizda yo'q deb o'ylaysizmi?

VATAN, XALQ ROZILIGI BIRLAMCHI VAZIFA

Barcha ham, ayniqsa, yoshlar tarbiyani turli kompyuter o'yinlari, internet va ijtimoiy tarmoqlardan emas, eng avvalo, ezgulikka, poklikka va dinu diyonatga chaqiruvchi yaxshi kitoblarni nashrlardan olsin!

Ko'p kitob, gazeta va jurnallar o'qigan, diniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan insonlar orasidan korrupsionerlar, pul uchun hatto vatanini, xalqini, dinini sotadiganlar chiqmaydi. Ular aksincha vatan uchun jonlarini fido qiladigan, maqsadlari nima qilib bo'lsada pul, boylik topish emas, aksincha odamlarga yaxshilik qilishni, og'irini yengil qilishni o'ylaydigan insonlar bo'lishadi. Ular uchun boylik emas, vatan, xalq roziligini olish birlamchi vazifa bo'ladi.

E'TIBOR, QIZIQISH SUST...

Buning uchun nafaqat o'quv maskanlari balki, korxonalari tashkilotlar kabi barcha ishxonalarda ham xodimlarning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviyat va ma'rifatlarini oshirishga katta e'tibor qaratish lozim. Ularni kitoblar, gazeta va jurnallar o'qishga qiziqtirish kerak. Chunki, kitoblar, gazeta va jurnallar insonni vatanparvar, halol, ma'rifatli inson qilib tarbiyalashda eng muhim vositalardan hisoblanadi.

Afsuski, ayniqsa, ishxonalarda xodimlarni mana shunday vositalar orqali tarbiyalashga e'tibor sust. Yoshlarni kitob va boshqa nashrlarni o'qishga qiziqtirish o'rniga aksincha ish tutayotganlar ham yo'q emas. Buni kombinatimiz



misolida qarasak ham fikrimiz isbotini topadi, desak yanglishmaymiz. Kombinat kasaba uyushma qo'mitasining yaxshigina kutubxonasi bor edi. Afsuski bu kutubxona yopildi.

"Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" Prezident qaroridan so'ng kombinatda kitob do'koni ochilgan edi. Metallurglar oylik mehnat haqlari hisobidan bu do'kondan kitoblar sotib olishardi. Sotuvchilar ham, ishchi-xodimlar ham xursand edilar. Afsuski, oylik maosh hisobidan kitob olish to'xtatilganidan so'ng sekin-asta bu kitob do'koni ham yopilib ketdi.

Boshqa joylarda ham shunga o'xshash holatlar ko'p uchraydi. Xalqimizda ham kitob va turli nashrlarni o'qishga qiziqish ancha susaygan.

RIVOJLANGAN DAVLATLARDAN O'RNAK OLAYLIK!

Dunyoning eng rivojlangan davlatlarida holat buning butunlay aksi. Rivojlangan davlatlar aholisi kitobni ko'p o'qishar ekan. Qoloq davlatlarda esa aksincha kitob kam o'qilar ekan. Masalan amerikaliklar (AQSH) yiliga 357 soat o'qishadi. Buyuk Britaniyada esa ingliz haftasiga 6,5 soat kitob mutolaa qiladi. Fransiya va Italiyada aholi bir haftada 5 soatdan ortiq vaqtini kitob o'qishga sarflaydi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, bu davlatlarda garchi internet nashrlari yaxshi rivojlangan bo'lsada, aholi elektron yoki audio kitoblardan ko'ra ko'proq bosma kitoblarni o'qishni ma'qul ko'radi.

AQSH, Kanada, Germaniya, Yaponiya esa dunyoda eng ko'p gazetalar nashr qilinadigan davlatlar ro'yxatining boshida turadi.

MA'NAVIYATNI PUL BILAN O'LCHAB BO'LMAYDI

Ma'naviyat va ma'rifatni, vatanparvarlik, halollikni pul bilan o'lchab bo'lmaydi. Mana shunday xislatlarga ega bo'lganlar har qanday joyda yuksalishda asosiy kuch bo'lishadi. Ma'naviyat va ma'rifati yo'q, korrupsiyaga moyil, vatanparvarlik, halollik ustidan kuladigan yoki unga befarqlar esa korxonalari u yoqda tursin, vatanini ham sotishdan toymaydi.

Bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat – eng muhim va hamma shug'ullanishi kerak bo'lgan masala hisoblanadi. Shunday ekan, ishxonalarga ham yangi nur, yangi ziyo kirib borishi har bir rahbarning ham asosiy ishiga aylansa ayni mudao bo'lar edi. Zotan, har qaysi davlat, har qaysi xalq intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir.

Diyor ZULFIQOROV.


O'TIRIB ISHLAYDIGANLARGA QANDAY KASALLIKLAR XAVF SOLADI?

Texnikaning shiddat bilan rivojlanishi ish unumdorligini bir necha barobarga oshirdi. Shu bilan birga, jismoniy mehnatni keskin qisqartirdi ham. Natijada kamharakatlik va jismoniy faollikning yetishmasligi sabab so'nggi yillarda dunyo aholisi orasida suyak, tomir va bo'g'im xastaliklari soni keskin ortib bormoqda.

EHTIYOT BO'LING!

Bugungi kunda ko'plab insonlar ish yoki o'qish sababli asosiy vaqtini kompyuter qarshisida o'tkazadi. Ularning nazdida tinch va osoyishta xonada xotirjam ishlash kasbiy xavf-xatarlardan xolidek tuyiladi.

Biroq bunday emas. Chunki mazkur sharoitda mehnat qilishning ham o'ziga yarasha muammolari bor. Ularning oldini olmaslik esa jiddiy kasalliklar kelib chiqishiga yetarlicha asos bo'ladi.



Mutaxassislar o'tirib ishlaydiganlarning sog'ligida kuzatiladigan o'zgarishlarni "ofis xodimi sindromi" deb ataydi. Sindromga ko'ra, ofis xodimlari bosh og'rig'i, surunkali charchoq, ko'z achishishi yoki qizarishi, bel va bo'g'im og'riqlari, qorin dam bo'lishi hamda oyoq uvishishidan aziyat chekadi.

Aynan xizmat taqozosi bilan bir joyda o'tirib ishlash natijasida jismoniy faollik sust bo'lib qoladi va tanada qon aylanishi me'yorida kechmaydi. Oqibatda esa insonda ortiqcha vazn va semizlik kelib chiqadi.

Shuningdek, harakatsiz holatda (ko'pincha engashib o'tirish) uzoq vaqt o'tirish bo'g'imlar "qotib qolishi"ga olib keladi. Qon yetib kelishi to'liq bajarilmagani bois oyoq uvishadi.

Shu bilan birga, mazkur holat bavo-sir tugunlarining hosil bo'lishi, kichik tos a'zosi bezovtaliklari hamda vena qon tomirlarida varikoz kengayishiga sabab bo'ladi.

Umurtqa osteoxondrozi umurtqa pog'onasining surunkali kasalligi bo'lib, ofis xodimlari orasida juda keng tarqalgan. Ba'zan bemor yelkasida og'riq sezadi, ammo tekshiruvlarda biror kasallik alomati sezilmaydi. Rentgen tekshiruvda ham osteoxondroz belgilari ko'rinmaydi. Ammo bemorni yelkadagi og'riq bezovta qilishda davom etaveradi. Bu "ofis xodimi sindromi"ning yashirin ko'rinishi bo'lib, asosan, uzoq muddat harakatsiz holatda o'tirib ishlashdan paydo bo'ladi.

NIMA QILISH KERAK?

Mutaxassislar avvalo, xonada stol, stul va




kompyuterning to'g'ri joylashishiga e'tibor berish kerak deydi. Bel va bo'yin og'riqlarining oldini olish uchun aynan kompyuter monitorini ko'zning tekisligida o'rnatilishi muhim hisoblanadi. Shuningdek, stulning belga yordam beruvchi orqa qismiga ham ahamiyat berish lozim ekan.

Xodim ish vaqti davomida (imkon qadar har bir-ikki soatda) 5-10 daqiqalik tanaffus qilib turishi tavsiya etiladi. U bu paytda bir necha marotaba o'tirib, turishi, gavdani yon tomonga harakatlantirishi, boshni soat mili bo'ylab aylantirishi, lift o'rniga zinadan foydalanishi kerak ekan. Shundagina kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish mumkinligi aytiladi.

Shifokorlar har ikki soatda bo'yin mushaklari uchun mashq bajarilishi bo'yin osteoxondrozining profilaktikasi bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, ensa va kurak sohasida og'riq, uvishish kuzatilganida bunday mashqlar yaxshi foyda berar ekan.

Ma'lum bo'lishicha, tizza bo'g'imlarining bir xil bukilgan yoki yozilgan holatda ko'p qolib ketishi oqibatida uning drenaj funksiyasi, oziqlanishi buziladi. Natijada, artroz-bo'g'im kasalligi kelib chiqadi. Shu bois oyoqlar holatini almashtirib turish, o'tirgan holda velosiped harakatlarini oldinga va orqaga bajarish, chuqur nafas chiqarib o'tirish va chuqur nafas olgan holda turish mashqlarini bajarish kerak va bu samara beradi.



QURUQ KO'ZLAR SINDROMI

Yana bir muammo – bu, quruq ko'zlar sindromi. U asosan uzoq vaqt bir joyda o'tirib, kompyuter qarshisida ishlash tufayli yuzaga keladi. Natijada xodimning ko'zlari qizaradi, achishadi yoki yoshlanadi.


Quruq ko'zlar sindromi kelib chiqmasligi uchun ham shifokorlar o'z maslahatlarini berib o'tgan.

Ko'z mashqlari muntazam ravishda amalga oshirilsa, mo'jizalar yaratadi. Quyidagi mashqlardan har kuni taxminan 10 daqiqa davomida bajarish.

Ko'zlarni tez-tez piri-pirating (100 marta). Bu ko'z ichidagi qon aylanishini normallashtiradi.

Ko'zlaringizni kuch bilan yumib, oching (10 marta).

Boshingizni chapdan o'ngga, o'ngdan chapga, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga qarata aylantirish (10 marta). Bu qon aylanishini faol-



lashtiradi.

Ko'zlaringizni turli yo'nalishlarda harakatlantirish: o'ngga-chapga, chapdan o'ngga, yuqoriga-pastga, pastdan yuqoriga, aylana, sakkizinchi raqam (15 marta).

Nigohingizni derazadan tashqariga, uzoqdagi biror ob'ektga qarating. So'ng yana yaqindagi narsaga qarang, masalan derazaning oynasidagi biror nuqtaga (10 marta).

Ko'zlaringizni yuming. Zulmatga cho'mish yorug'likka sezgir hujayralarda aniq ko'rish qobiliyatini shakllantiradi.

Muhimi, kompyuter qarshisida uzoq vaqt o'tirish kerak. Kichik tanaffuslar ko'zga dam beradi.

QANDAY YORDAM BERISHIMIZ MUMKIN?

Oftalmologlar astenopiyaning (ko'zlar charchashi sindromi) yangi "epidemiya" deb atamoqda: ofis xodimlari va maktab o'quvchilarining 92 foizi vaqti-vaqti bilan uning alomatlarini his qilishadi (ko'p hollarda kompyuter bilan ishlagandan keyin). Ko'zlar toliqishidan quyidagi alomatlar dalolat beradi: ko'z oldini parda qoplaydi, buyumlar noaniq ko'rinadi, yosh oqishi bezovta qiladi, ko'zlarga qum kirib qolganday his paydo bo'ladi, ko'zlarning o'tkirligi pasayadi. Muammoni keskin hal qilib, texnikadan ba'zida foydalanish – yechim emas.

Tibbiyot xodimlari kompyuter bilan ishlash qoidalariga amal qilishni va ish o'rnini oqilona tashkillashtirishni maslahat beradi.

1-qoida. To'g'ri ish maromini yaratish zarur. Kuniga umuman 6 soatdan ortiq va uzluksiz 1,5 soatdan ortiq monitor oldida o'tirmaslik zarur (shu oraliqlarda o'n besh daqiqalik tanaffuslarni qilish muhim).

2-qoida. Qulay ish zonasini tashkil qiling. Monitorni ko'cha chiroqlari yoki stol chirog'ining shu'lasini tushmaydigan tarzda burib qo'yish, kichikroq qiyalik hosil bo'lishi uchun uning pastki chekkasini biroz chiqarish va ko'zlaridan 50-60 sm. masofada joylashtirish kerak. Devorlari bir xil oq rangda bo'lgan ofislarda ko'zlar kuchliroq toliqadi, chunki ularda qarash mumkin bo'lgan narsaning o'zi yo'q. Ofis devorlarining rang-barang bo'lishi ko'zlar uchun yaxshiroq hisoblanadi.

Sahifani shifokor Mirzaburxon DO'STMURODOV tayyorladi.

“MEHMON TUYG‘ULAR”

- Million dollarsiz yashamoq mumkinmi?
- Mumkin.
- Yuz, o‘n, hatto bir dollaring bo‘lmasa-chi?
- Yashamoq mumkin. Rizqni Tangri beradi. Kishining tirik yurishi uchun kunda bir kesim non kifoya. Og‘ir kunlarda odamlar shunday yashashgan. Odam nima uchun taomlanadi? O‘lib qolmaslik, harakatdan to‘xtamaslik uchun. Buning uchun katta boylik shart emas.
- Shon-shuhratsiz yashamoq mumkinmi?
- Odamlar yashashyapti-ku? Nega



- mumkin emas ekan?
- Yuqori mansabsiz-chi?
- Odamlarning barchasi mansabdor emas-ku?
- Amaling bo‘lmasa, boyliging bo‘lmasa, shon-shuhrating bo‘lmasa, to‘y-hashamlarda senga poygakdan joy tegadi.
- Demak, ular Odamni emas, amal va boylikni to‘yga chorlashgan ekan. Poygakda o‘tirishdan afsus chekmaslik kerak. Chunki o‘sha to‘rdagilar hade-may poygakka tushadilar.
- Xo‘sh, boyliksiz, amalsiz, shuhratsiz yashamoq mumkin ekan. Nimasiz yashamoq mumkin emas?
- Iymonsiz. Iymon bilan yashayotgan kishi Allohning huzurida eng boy, eng shuhratli kishidir. Tangri huzuridagi dasturxon to‘ri ham iymon egalari-niki bo‘ladi. Dunyoviy boylik, mansab, shuhrat xiyonatkordirlar. Iymon boyligi esa sadoqatlidir. Bu dunyoda tashvishli yoki quvonchli kunlarda ham yolg‘iz qo‘ymaydi. U dunyoda esa o‘zingga ko‘shk bo‘lib xizmat qiladi.

Tohir MALIKning “Mehmon tuyg‘ular” kitobidan.

JANOBI PAYG‘AMBARIMIZ RASULULLOH SALLALLOHI ALAYHI VASALLAM MEHR-MURUVVAT TARIQASIDA MARHAMAT QILADILAR

Bir kishi yo‘lda ketayotib, tikanli butoqni ko‘rsa va uni chetga olib tashlasa, Alloh uni bu ishi uchun mukofotlab, gunohlarini kechiradi.

Imom Buxoriy rivoyatlari.

Yarimta xurmo bilan bo‘lsa ham o‘zingizni do‘zaxdan saqlang! Agar kimki buni topolmasa – shirin so‘z bilan.

Haq bo‘la turib, janjalni tark etgan kishiga Jannat yonidagi bir uyga kafilman. Hazildan bo‘lsa ham, yolg‘onni tark etgan kishiga Jannat o‘rtasidagi bir uyga kafilman. Go‘zal xulqli kishiga Jannatning eng yuqorisidagi bir uyga kafilman.

Imom Abu Dovud rivoyatlari.

Odamlarning yaxshisi – kishilarga manfaati ko‘p tekkanidir. Yo‘lning haqqi – ko‘zni tiyish, aziyat bermaslik, salomga alik olish, yaxshilikka buyurish va yomonlikdan qaytarish.

Muttafaqun alayh rivoyatlari.

Mo‘minlarning imoni eng mukammali – xulqi go‘zal bo‘lganlaridir.

Imom Termiziy rivoyatlari.

Yer yuzidagilarga rahm qiling, osmondagi Zot sizga rahm qil-gusidir. Men ulug‘ xulqlarni mukammal qilish uchun yuborilgan-man.

Imom Bazzor rivoyatlari.

Ota-onaga duo qilishni tark etish rizqni kesadi.

Albatta, odamlarga go‘zal xulqdan afzalroq narsa berilmagan.

Imom Tabaroniy rivoyatlari.

To‘plovchi Ibrohimjon domla Inomov.

DONO XALQIMIZ MAQOLLARI

Ota-ona rozi – Xudo rozi!

Yaxshi o‘g‘il ota molini biylar,
Yomon o‘g‘il ota molini sochar.

O‘zingga ravo ko‘rmaganni
O‘zgaga ham ravo ko‘rma!

Kishining ko‘nglini og‘ritma zinhor –
Sening ham ko‘nglingni og‘rituvchilar bor!

QISQA VA TA’SIRLI HIKOYALAR

HAYOT DAVOM ETADI

Tong otdi.

Ko‘zlari uyqudan ochilgan Anvar yuzini chimdilab ko‘rdi. Kecha qabrga qo‘yib kelgan onasidan keyin ortiq yashay olmasam kerak deb o‘ylagandi...

XURSANDCHILIK

Qariyalar uyida yashovchi otaxon juda katta miqdorda pul yutib oldi. Farzandlari juda xursand.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

Qur‘onning ma‘nosi nima?

Xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarish korxonasida sirlangan idishlar ishlab chiqarish qachondan boshlangan?



“Ikkilamchiqorametalllar” xo‘jalik hiso-bidagi boshqarma qachon tashkil etilgan?

Braziliya mamlakatining nomi qaysi xalq tomonidan berilgan?

Qaysi hayvon (hashorat)ning zahari boshqalarnikidan kuchliroq bo‘ladi?

Ispan tilida "aylanuvchi" degan ma‘noni

anglatuvchi shamol qanday nomlanadi?

Uylarni raqamlash ilk marta qachon va qayerda paydo bo‘lgan?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o‘tgan sonidagi savol-larning javoblari.

* Buyuk olim Mirzo Ulug‘bek, yangi imperiyaga asos solgan buyuk sarkarda Zahriddin Muhammad Bobur.

* 1994-yil 25-may kuni.

* Bu asarda ona tilini unutgan o‘g‘lidan voz kechgan ona haqida hikoya qilinadi.

* Unga belab pishirilgan yoki yog‘da qovurilgan baliq kishini tez chanqatadi.

* Temir-tersak parchalarini qayta ish-lash sexi 1983-yil 3-iyun kuni Elektrda po‘lat eritish sexi tarkibidan alohida ajra-lib chiqdi.

OPTIMIST BO‘LING - KASAL BO‘LMAYSIZ

AQSHning Kolumbiya universiteti tadqiqotchilari optimistik kayfiyatda yurish kasalliklarga chalinish xavfini kamaytirishini aniqlashdi. Bu tajriba davomida 2400 nafar ko‘ngillilar doimiy ravishda kuzatib borilgan.

Suhbatlar asosida yorqin kelajakka bo‘lgan ishonchi, hodisalarga ijobiy yondashuvini namoyon qilganlar shifokor yordamiga g‘amgin odamlarga qaraganda 30 foiz kam ehtiyoj sezishgani ma‘lum bo‘lgan.

Ijobiy kayfiyatda yuradiganlar insult, saraton hamda infeksiyon kasalliklarga pessimistlarga qaraganda 40 foiz kamroq chalinar ekan.



XANDALAR

Ikki ayol suhbatlashmoqda:

– Bolam kechasi yig‘lashi bilan alla aytaman, uxlab qoladi.

– Men ham avval shunday qildim, bola yig‘lashi bilan alla aytishni boshlardim. Keyin qo‘shni-lar to‘planib chiqib, “mayli, yaxshisi bolangiz yig‘lay qolsin” deb iltimos qilishdi.

Avval prokuror bo‘lib ishlagan odam zavod rahbari lavozimiga ish-ga tayinlanibdi va ish-chilarga qarab:

– Men sizlarga o‘g‘ri-lik qilish qanaqa bo‘li-shini ko‘rsatib qo‘ya-man hali, – dermish.



Muharrir:

Ismadiyor MAMATQULOV

Gazeta oyda bir marta chiqadi.

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

MUASSIS:
O‘zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

www.uzbeksteel.uz

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
“O‘zmetkombinat”
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda O3-006 raqam bilan
ro‘yxatga olingan.